<b>Раматов Зафарбек Жуманиязович</b>	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
<b>Mannapova Shaxnoza Elshodovna</b>	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnomaga yondashuvi .....	947
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari .....	962
<b>Vaxrombek Bobojonov</b>	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili” bekberganova mohira ravshonbekovna .....	967
<b>O'zbekiston Milliy universiteti</b>	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar .....	973
<b>Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi</b>	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий .....	978
<b>Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна</b>	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
<b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar .....	987
<b>Sattorov Mirjahon</b>	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории .....	991
<b>Дебердиев Анвар</b>	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlari auditini rejalashtirish masalalari.....	995
<b>Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi</b>	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций .....	1000
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович</b>	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
<b>Rahmonov Siyovush Turob o'g'li</b>	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками .....	1016
<b>Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович</b>	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга .....	1024
<b>Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо қизи</b>	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца .....	1029
<b>Мухаммадиева Лола Атамурадovна</b>	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
<b>Uskenbaeva Dilnoza Voxodir qizi</b>	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
<b>Махмудова Севара Улугбековна</b>	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati .....	1048
<b>Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna</b>	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
<b>Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi</b>	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
<b>Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich</b>	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxonada darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi .....	1063
<b>Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li</b>	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов .....	1070
<b>Гулираъно Носирова Абдулазиз қизи</b>	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati .....	1073
<b>Bobaev Isroiljon Abdinabievich</b>	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции .....	1078
<b>Шарипов Бахтиёр Михлибаевич</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
<b>Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b>	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan .....	1092
<b>Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich</b>	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
<b>Qosimova Nodira Saidovna</b>	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
<b>Azizova Maliha Farrux qizi</b>	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана .....	1106
<b>Максудова Шахзода</b>	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий .....	1112
<b>Олимова Бахора Шухратовна</b>	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
<b>Sultonov Omon Juma o'g'li</b>	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri .....	1121
<b>Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li</b>	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики.....	1125
<b>Гулов Мухтор Очилович</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati .....	1129
<b>To'rayev Shavkat Shuxratovich</b>	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений.....	1136
<b>Муродова Наргиза Уткировна</b>	
Развитие финансовых рынков в странах СНГ: проблемы и перспективы.....	1140
<b>Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли</b>	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики.....	1145
<b>Темирова Феруза Сагдуллаевна</b>	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari" .....	1149
<b>Sherzod Rajabov</b>	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
<b>Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович</b>	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems .....	1157
<b>Mubina Toirova</b>	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках .....	1162
<b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar .....	1167
<b>A'zam Qutbiddin A'zam-zoda</b>	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida .....	1179
<b>Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich</b>	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari .....	1186
<b>Abidova Dilfuza Igamberdievna</b>	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
<b>Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich</b>	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
<b>Aliyev Arslon Salom o'g'li</b>	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
<b>Jumanova Zilola Tuychiyevna</b>	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
<b>Ruziyev G'anisher Usarovich</b>	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
<b>Xoshimova Sevara Bahromovna</b>	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari .....	1229
<b>Kuldoshev Asliddin Tursunovich</b>	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана.....	1236
<b>Абдурахимова Дилора Каримовна</b>	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
<b>Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi</b>	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan .....	1245
<b>Ismatova Mahliyo</b>	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
<b>Akmal Bakhromov</b>	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
<b>F.Djalilov</b>	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
<b>Махкамова Саида Гайратова</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
<b>Xojiev Ibroxim Ikramovich</b>	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
<b>Allanazarova B.K.</b>	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
<b>Abdurakhimova Dilara Karimovna</b>	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
<b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna</b>	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
<b>Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi</b>	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
<b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
<b>Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna</b>	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
<b>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</b>	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
<b>Khusniddin Egamnazarov</b>	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
<b>D. Sh. Usmanbayev</b>	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
<b>Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich</b>	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
<b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
<b>Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich</b>	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
<b>Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant</b>	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
<b>Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich</b>	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
<b>Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna</b>	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
<b>Mirzayeva Shirin Nodirovna</b>	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
<b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlari.....	1369
<b>Iskandarova D.B.</b>	



# TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BA'ZI IQTISODIY YONDASHUVLARNING NAZARIY JIHATLARI



Iskandarova D.B.

Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalar  
Universiteti o'qituvchisi  
[dildora\\_i.m@mail.ru](mailto:dildora_i.m@mail.ru)  
<https://orcid.org/0009-0000-4797-2665>

**Annotatsiya:** Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda turli davrlar va hududlarda turli yondashuvlar orqali ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Milliy iqtisodiyot doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ularni sinflashtirish, turlarga ajratish va yo'nalishlar bo'yicha o'rganish, shuningdek, amaliy natijalar hamda mavjud holatga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. Bu borada tizimli yondashuv zaruratdir.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy yondashuv, iqtisodiy maqsadlar, iqtisodiy o'sish, bandlik, narx, rivojlanish, tashqi savdo faoliyati.

**Abstract:** The development of entrepreneurial activity plays a vital role in economic progress. Various studies have been conducted in this field using different approaches across historical periods and regions. Within the framework of the national economy, it is essential to classify entrepreneurial entities, distinguish their types, and analyze them by sectors, while considering current realities and practical outcomes. A systematic approach is essential in today's context.

**Key words:** entrepreneurial entities, economic approach, economic objectives, economic growth, employment, price dynamics, sustainable development, foreign trade activity.

**Аннотация:** Развитие предпринимательской деятельности является важным фактором экономического роста. В данном направлении в разные исторические периоды и в различных регионах проводились многочисленные исследования с применением различных экономических подходов. В условиях национальной экономики актуальной задачей становится классификация субъектов предпринимательства, их типологизация и отраслевой анализ с учётом текущих реалий и практических результатов. Такой системный подход сегодня крайне необходим.

**Ключевые слова:** субъекты предпринимательства, экономический подход, экономические цели, экономический рост, занятость, ценовая динамика, устойчивое развитие, внешнеэкономическая деятельность.

## KIRISH

Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun bir qator iqtisodiy yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy resurslar – yer, mehnat, kapital, texnologiyalar va tadbirkorlik qobiliyati orasida aynan tadbirkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlarning asosiy vazifalariga ishlab chiqarish resurslarini samarali tarzda birlashtirish kiradi. Ya'ni ular yer, mehnat va kapitalni to'g'ri boshqarish orqali tovar hamda xizmatlar ishlab chiqaradilar.

Tadbirkorlar, shuningdek, strategik qarorlar qabul qilib, biznesning yo'nalishini va rivojlanish strategiyasini belgilaydilar. Ular innovatsiyalar joriy etish orqali yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini hayotga tatbiq etadilar. Tadbirkor o'z zimmasiga tijorat xavfini oladi – natijasi noma'lum bo'lgan qarorlarni qabul qilib, muvaffaqiyat yoki yo'qotish ehtimolini ham qabul qiladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi muhim rolini ko'rsatadi.



Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorning bosh vazifasi – raqobat muhitini yaratishdir. Tadbirkorlar bozordagi raqobatni kuchaytirib, iste'molchilar uchun sifatli va arzon mahsulotlarni taklif etadi. Aksincha, raqobat muhitining buzilishi – iste'molchiga sifatli va qulay mahsulotlar yetkazilishini cheklab qo'yadi.

Tadbirkorlar, shuningdek, resurslarni talab va taklif asosida samarali taqsimlaydi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ular yangi bizneslar va innovatsiyalar orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Tadbirkorlik va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlik doimiy bo'lib, innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlar yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish orqali bozor ehtiyojlarini qondiradilar. Ular texnologik rivojlanishga hissa qo'shib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradilar. Shuningdek, innovatsion faoliyat orqali iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtiradilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Rivojlangan va barqaror institutlar tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratadi” degan fikrni olimlar: Duglas Nort, Oliver Uilyamson tadqiq etishgan. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance* (1990) nomli asarida Duglas Nort institutlarni «o'yin qoidalari» deb atab, ular jamiyatdagi barcha aloqalar – siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga ta'sir qiluvchi mexanizm ekanini ta'kidlaydi. “Yaxshi ishlov berilgan institutlar tadbirkorlikni rag'batlantiradi, noma'qullari esa faoliyatni cheklaydi,” deydi. Neoklassik yondashuv nuqtai nazaridan Lyudvig fon Mizes, Fridrix Xayek “Tadbirkorlar resurslarni bozor signallari orqali samarali taqsimlaydi” degan fikrni tadqiq etishgan. Yozef Shumpeter esa “Tadbirkorlik – innovatsiya manbai va iqtisodiy o'sish drayveri” deb hisoblagan. Xulq-atvor iqtisodiyoti yo'nalishida Gerbert Saymon, Daniyel Kaneman “Barcha tadbirkorlar doimo ratsional emas; ular xatar, ishonch va intuitsiya asosida qaror qabul qilishadi” degan g'oyani ilgari surishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy yondashuvlar genetikasi (tadrijiy rivojlanishi) o'rganildi. Shu bilan birga, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari, iqtisodiy hodisalarning baholanishida **normativ va pozitiv iqtisodiyot** nuqtai nazaridan ham tahlillar olib borildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot olib borish jarayonida quyidagi asosiy iqtisodiy yondashuvlar o'rganilindi:

Institutsional yondashuv – bunda tadbirkorlik faoliyatini ta'minlaydigan huquqiy-me'yoriy baza, mulk huquqlari, kontraktlarni himoya qilish kabi institutsional omillar tahlil qilinadi. Neoklassik yondashuvda esa raqobat, resurslar taqsimoti, bozor mexanizmlari va talab-taklif asosida tadbirkorlik samaradorligi baholanadi. Innovatsion yondashuv – yangi g'oyalar, texnologiyalar, mahsulot va jarayonlar tadbirkorlik rivojiga turtki berishi tahlil qilinadi. Xulq-atvor yondashuvida tadbirkorlarning qaror qabul qilish jarayonidagi psixologik va ijtimoiy omillari o'rganiladi. Makroiqtisodiy yondashuvda tadbirkorlikning umumiy iqtisodiy muhiti, soliq siyosati, kredit imkoniyatlari, inflyatsiya va ishsizlik darajalari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Unda makroiqtisodiy barqarorlik va davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv orqali tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi boshqa tarmoqlar bilan rivojlantirish zarurligi, tadbirkorlik alohida emas, balki tizimdagi boshqa elementlar bilan birgalikda rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Tashqi iqtisodiy (eksportni qo'llab-quvvatlovchi) yondashuv – tashqi bozorlarga chiqish va xalqaro savdodagi ishtirok tadbirkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Eksport salohiyatini oshirish orqali tadbirkorlik rivojlanishiga e'tibor qaratiladi (1-jadval).

### 1-jadval. Tadbirkorlikni tahlil qilish yondashuvlari

№	Yondashuv nomi	Izoh (ixtiyoriy to'ldiriladi)
1	Institutsional yondashuv	Huquqiy-me'yoriy baza, mulk huquqlari va shartnomaviy himoya omillari tahlili
2	Neoklassik yondashuv	Raqobat, resurslar taqsimoti, talab va taklif asosidagi tahlil
3	Innovatsion yondashuv	Yangi g'oyalar, texnologiyalar va mahsulotlar orqali rivojlanish
4	Xulq-atvor yondashuvi	Psixologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida qaror qabul qilish
5	Makroiqtisodiy yondashuv	Soliq, kredit siyosati, inflyatsiya, ishsizlik, makroiqtisodiy muhit
6	Tizimli yondashuv	Tadbirkorlikni boshqa tarmoqlar bilan integratsiyada rivojlantirish
7	Tashqi iqtisodiy yondashuv	Eksport salohiyati, xalqaro savdo va tashqi bozorlar imkoniyatlari



## 2-jadval. Tadbirkorlik subyektlarini sinflashtirish

№	Korxonalar turi	Tavsiya etilgan yo'nalishlar
1	Kichik korxonalar	Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlariga e'tibor bering.
2	O'rta korxonalar	Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlarini kengaytiring.
3	Yirik korxonalar	Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qiling.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda biz ham quyidagicha yondashuvni amalga oshirdik: avvalo, amaldagi tadbirkorlik subyektlari faoliyati kichik, o'rta va yirik turlarga ajratilgan holda o'rganilib, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda savdo yo'nalishlari bo'yicha sinflab olindi. (2-jadval).

Shu asosda iqtisodiy yondashuvlarning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishini tahlil qildik.

## 3-jadval. Iqtisodiy yondashuvlarning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi

1	Institutsional yondashuv	"2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sud-huquq islohotlari, litsenziyalash jarayonlarini raqamlash, xalqaro arbitraj tizimlariga kirish kabi institutlar takomillashtirildi.	Institutlarning takomillashuvi tadbirkorlik rivojiga o'z hissasini qo'shadi.
2	Neoklassik yondashuv	Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida xususiy mulkni himoya qilish, talab va taklif asosida faoliyat yurituvchi kichik bizneslarning ko'payishi – neoklassik yondashuvning amaldagi namunasi.	Xususiy mulkni himoya qilish muammolarini bartaraf etish va talab-taklif asosida ish yuritishni yo'lga qo'yish.
3	Innovatsion yondashuv	Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati, "Yoshlar – kelajagimiz" va "Startup initiative" dasturlari orqali texnologik yangi bizneslarni qo'llab-quvvatlash.	Texnologik rivojlanish orqali qayta ishlash zanjirini rivojlantirish.
4	Xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvi	Tadbirkorlarning davlat subsidiyalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, xavf va ishonch omillari, biznesda ijtimoiy kapitalning roli – psixologiyani inobatga oladigan yondashuvga asoslanadi.	Xulq-atvor iqtisodiyotiga e'tiborni kuchaytirish orqali tadbirkorlikni yanada rivojlantirish.
5	Makroiqtisodiy yondashuv	Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida inflyatsiyani pasaytirish, past foizli kredit dasturlari (masalan, "Har bir oila – tadbirkor" loyihasi), soliq imtiyozlari joriy etilishi.	Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kompleks rivojlantirish.
6	Tizimli yondashuv	Turizm klasterlari, agro-industrial klasterlar (masalan, Buxoro va Samarqandda), sanoat zonalarini tashkil etilmoqda – bu tizimli yondashuvning amaldagi ko'rinishidir.	Sohalar kesimida rivojlanish.
7	Tashqi iqtisodiy yondashuv	"Made in Uzbekistan" yarmarkalari, eksportni rag'batlantirish agentligi va eksport kreditlarini berish kabi tashabbuslar tadbirkorlikni tashqi bozorlarga chiqish orqali qo'llab-quvvatlamoda.	Qat'iy valyuta tushumining ortishi, tashqi savdo balansi ijobiy qoldig'iga erishish.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishda iqtisodiy yondashuv ko'pincha amalga oshirilmasligi uning nazariy asoslariga e'tibor bermaslik yoki uni bilmaslik sababidan yuzaga keladi. Iqtisodiy yondashuvda resurslar chegaralanganligi, muqobil xarajatlar nazariyasidan foydalanish, ratsional yondashuv hamda marjinal tahlil muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy yondashuvlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan va davlat tomonidan to'g'ri amalga oshirilsa, bir qator iqtisodiy maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi. Jumladan: iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni ta'minlash, aholi turmush farovonligini oshirish, sifatli va arzon tovarlarga egalik qilish, bandlik muammolariga yechim topish hamda narxlar barqarorligiga erishish mumkin.

Milliy iqtisodiyotda texnologik o'sish va tashqi savdoning rivojlanishiga erishish mumkin. Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida ratsional yondashuv asosida qarorlar qabul qilish Yangi O'zbekistonning yanada iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali rivojlantirishda iqtisodiy yondashuvlarning nazariy asoslarini chuqur tushunish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, institutsional yondashuv tadbirkorlik muhitini barqarorlashtiruvchi omil bo'lib, huquqiy me'yorlar va mulk huquqlarini kafolatlash orqali faoliyatni rag'batlantiradi. Neoklassik yondashuv esa bozor mexanizmlariga tayangan holda, talab va taklif asosida resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlaydi. Innovatsion yondashuv yangi g'oya va texnologiyalar orqali iqtisodiy o'sishga kuchli turtki beradi. Xulq-atvor yondashuvi esa tadbirkor qarorlarining psixologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olib, risk va ishonch faktorlarini tahlil etishga asoslanadi. Makroiqtisodiy yondashuvda iqtisodiy muhit, soliq siyosati va kredit imkoniyatlari orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. Tizimli va tashqi iqtisodiy yondashuvlar esa ichki va tashqi bozor integratsiyasi orqali faoliyatni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini baholashda iqtisodiy yondashuvlarning turli modellari asosida kompleks tahlil tizimini ishlab chiqish zarur. Tadbirkorlar va davlat boshqaruvi organlari uchun iqtisodiy yondashuvlarning nazariy asoslari bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Innovatsion yondashuv doirasida texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmalarni kengaytirish, startap inkubatorlari va texnoparklar faoliyatini kuchaytirish lozim. Shuningdek, xulq-atvor yondashuvini hisobga olgan holda moliyaviy va subyektiv xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan konsultativ xizmatlarni rivojlantirish kerak. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali past foizli kreditlar, soliq imtiyozlari va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni davom ettirish muhimdir. Tizimli yondashuv asosida tarmoqlararo aloqalarni mustahkamlash, tarmoq klasterlarini yaratish va mintaqaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish kerak. Tashqi iqtisodiy yondashuv doirasida esa eksport salohiyatini oshirish, "Made in Uzbekistan" brendini targ'ib qilish va xalqaro savdoga chiqishni yengillashtiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. North, D. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
2. Schumpeter, J. (1942). *Capitalism, Socialism and Democracy*. Harper & Brothers.
3. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. Farrar, Straus and Giroux.
4. Mankiw, N.G. (2020). *Principles of Economics*. Cengage Learning.
5. Samuelson, P., & Nordhaus, W. (2010). *Economics*. McGraw-Hill Education.
6. Porter, M.E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
7. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson.
8. McConnell, C. R., Brue, S. L., & Flynn, S. M. (2014). *Economics: Principles, Problems, and Policies* (20th ed.). New York: McGraw-Hill Education.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---